

NAVFAL VA IBN SALOM OBRAZLARINING QIYOSIY TAHLILI

Qobil Urdishev

O'qituvchi, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa

san'ati instituti, O'zbekistan

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi hamda yozma adabiyotida, xususan, dostonlarda uchraydigan an'anaviy obraz – do'st obrizini Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi talqiniga alohida to'xtab otiladi, ya'ni Navfalning hamda avom ishqiga xos bo'lgan Ibn Salomning asar g'oyasini yoritishdagi xususiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mif va afsona, doston, obraz, do'st va qahramon, ishq, oshiq, voqea, Layli va Majnun, dard, may, g'am.

Annotation: In this article, the image of a friend, a traditional image found in Uzbek folk oral art and written literature, in particular in epics, is separately paused on the interpretation of Alisher Navoi in the epic “Layli and Majnun”, that is, the feature of Navfal and Ibn Salam in highlighting the idea of the work characteristic of people love is analyzed.

Key words: myth, legend and epic, image, friend and hero, novel, event, Leyli and , Majnun, pain, sadness.

Sharq adabiyotida do'st obrazi an'anaviy va sermahsul obrazlardan sanaladi. Bu obraz qadim-qadimdan mif va afsonalarda, xalq og'zaki ijodida, mumtoz adabiyotda, bir so'z bilan aytganda barcha davr adabiyotida qo'llanilgan asosiy obrazdir. Jumladan, “Ravshan” dostonida Hasanson va darvozabon, “Alpomish” dostonida Alpomish va Qorajon, “Qutadg'u bilik” asarida O'zg'urmish, “Gul va Navro'z” dostonida Bulbul obrazlari buning yorqin dalilidir. Huddi shunday Alisher Navoiy va uning salaflarining “Layli va Majnun” dostonida ham do'st obrazi ahamiyatli obrazlardan sanaladi.

Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi boshqa dostonlaridagi do'st obrazlaridan, xususan, “Hayrat ul-abror”dagi ikki vafoli do'st haqida hikoyatdagi do'stlar, “Farhod va Shirin” dostonidagi Shopur, “Sab'ai sayyor” dostonidagi Bahrom va Moniy munosabatlaridan keskin farq qiladi. Bu farqlarni nimalarda ko'rib o'tishimiz mumkin?

Yuqorida aytib o'tgan asarlardagi obrazlarni umumlashtiradigan bo'lsak, o'zbek adabiyotida qo'llanilgan do'st obrazlarning o'ziga xos o'rni va vazifalari shakllandi. Ular quyidagilar:

- oshiq-ma'shuqlarning maktublarini bir-biriga yetkazish.

- oshiq do'sti dardiga davo bermoq, ya'ni uning yor visoliga yetishi uchun yordamlashmoq, kerak bo'lsa bu savob yo'lda jon fido etmoq.

- do'st bilan umrbod yoki asar so'ngigacha birga bo'lish.

“Layli va Majnun” dostonida ikki do'st obrazning bosh qahramon taqdiriga befarq emaslik holatini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni, Majnun o'z yoriga yetishishga harakat qilayotganda unga Navfal va Zayd yordam berishadi.

Bundan tashqari, Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi obrazlar (Navfal va Zayd) boshqa xamsanavis ijodkorlarning “Layli va Majnun” dostonida keltirilgan do'st obrazlaridan bir qator

xususiyatlariga ko'ra, jumladan, ifodalash usuli, voqealar rivoji va tasvir yo'nalishida bir qancha farqlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Nizomiy Ganjaviy "Layli va Majnun" dostonida Navfal obraziga shunday tavsif beradi:

Ul yurtidan bir rahmdil,
Kelguvchi temiru mum kabi bil.
Navfal nomi etib shijoat,
Har bir tarafi qilardi toat...

Shoir Navfalni rahmdil va ayni paytda shijoatli, har bir urgan qilichi jangchilarga xos edi, deya tasvirlar ekan, jahli chiqqanda sherday, mehrda ohuday ekanligini aytib o'tadi. Boyligi haqida so'z yuritib shunday deydi:

Ham hashmat oluvchi ham hashamdor,
Ham davlati ko'pu ham diramdor...

Fuzuliy asarida esa Navfalning ta'rifidan oldin shoir an'anaviy tarzda soqiyga murojat qiladi:

Soqiy, yana qasdi jon edar g'am,
Ber jom labolabu damodam!
Bekas qolubam mani sabukroy,
San aylamasang manga madad voy!

Shoir, soqiy (may quyuvchiga) do'st kabi murojaat etib yolvorar ekan, unga g'am joniga qasd qilayotganini aytib, undan may solingan jomni to'ldirib ber, deya iltijo qiladi. Bu bilan Fuzuliy, dard va g'am qanchalik ko'p bo'lmasin, Ollohga bo'lgan ishqning oldida shunchalik kamligini, o'zligini ta'kidlab o'tadi. Shundan so'ng, shoir, Navfal madhiga o'tadi:

Kim, vor edi bir xujastafarjom,
Ul asrda odilu nekunom;
Tug'ila musof mushkuli hall,
Ma'rufi zamona odi Navfal...

Navfalni ta'vsiflar ekan shoir, uni ishq yo'lida ko'p yugurganini aytib, bu yo'lda juda ko'p jabr ko'rgan edi, deydi. Bu ta'rifni faqat Navoiyda ko'rishimiz mumkin. Shoir Navfalning Majnun haqidagi xabarni eshitish holatini shunday bayon etadi:

Bir kun o'xunurdi she'ri Majnun,
G'oyatda begandi tarzi poking,
Mazmuni kalomi so'znokin...

Uni sifati haqida ulamolaridan so‘ragan paytda, a‘yonlari unga – Ey shoh! Uni bir oy yuzli moh oshufta qilibdi, shu sababli u o‘ziga rasvoliq (g‘ariblik)ni kasb qilib, dard domiga tushibdi, deya ma‘lumot berishadi. Buni eshitgan Navfal Majnunni ko‘rishni orzu qila boshlaydi:

Navfal qilib orzuyi Majnun,
Ashob ila qildi azmi homun.
Bir go‘shada ko‘rdi zoru mahjur,
Holi nasaqi salohdan dur...

Navfal qarasaki, Majnunning atrofini yovvoyi hayvonlar o‘rab olgan, uning dardiga sherik emish. Shunda Navfal undan nega bu erlarda yurganini, insonlardan uzoqlashib, yaxshiy hayvonlar bilan do‘st tutunganligining sababini so‘raydi. Shu fikrning davomida shoir, majoziy fikrlarga ham murojaat qiladi, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanadi:

Davlat tilasang humodan ista,

Ganj istasang ajdahodan ista!...

Bu bilan Fuzuliy xalq og‘zaki ijodida davlat (baxt, omad) so‘zlari humo bilan, ganj (boylik) so‘zlari esa ajdah bilan yonma-yon kelishiga ishora qiladi.

Navoiy “Layli va Majnun” dostonida ham Navfal va Majnun munosabatlari o‘ziga xos yo‘sinda talqin etiladi. Majnun Ka‘ba ziyoratidan qaytgandan so‘ng tog‘- u biyobon tomonga yo‘l oladi. U yerda dod-faryod chekib o‘zligidan judo bo‘ladi. Hech narsani o‘ylamas, har yonga boqsa yorining (Majoziy tarzda Ollohning yerdagi mazhari Laylining) jamoli ko‘rinar edi. Majnunning firoq dardiga sherikdek, hattoki yonida yovvoyi hayvonlar ham qo‘riqchi itdek aylanib yurishar edi. Shu vaziyatda, Navoiy, Navfalning xususiyatlarini bayon etadi:

Navfalki Arabda erdi nodir,
Tigig‘a qadar, o‘qiga qodir.
YAxshiliq ila Arabda mavsum,
Oromgahi bu marz ila bo‘m...

Navoiy Navfalning xususiyatlarini keltirar ekan, uni o‘q-yoy otishga mohir ekanligini aytib o‘tadi. U kunlarning birida ovga chiqish uchun qabilalardan odamlar yig‘adi. Ov paytida barcha kiyiklar Majnun qoshida to‘planishadi. Shunda Navfal hayron qolib, odamlaridan, buni sizlar ham ko‘ryabsizlarmi? – deya so‘raydi. Uning sheriklari Majnundan ogoh edilar. Shunda unga bor voqeani aytib berishganda, Navfal ko‘zyosh to‘kib, ov qilishni tashlaydi. Chunki u ham bir vaqtlar ishq mojarosini boshidan kechirgan edi. Bu bilan, Navoiy, Olloh ishqida devona bo‘lgan inson iztiroblarini boshidan o‘tkazgangina tushina olishiga ishora qiladi.

Navoiy “Layli va Majnun” dostonining Nizomiy va Fuzuliy asarlaridan farq qiluvchi tomonlari quyidagi o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi. Xususan, bu uchala ijodkor asarlarida Navfalning Majnunga va‘da berishi o‘xshash bo‘lsada, voqealar rivoji va obrazlarning haqqoniy tasvirlanishida farqni ko‘rishimiz mumkin. Nima bo‘lganda ham Navfal timsolida o‘z do‘stiga yordam berishni istagan, lekin taqdirning hukmi oldida ojiz bo‘lgan sadoqatli do‘st timsoli aks ettirilgandir.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida yana bir Zayd obrazi ham do‘st obraziga misol bo‘la oladi. Zayd timsolini tasvirlashda Navoiy va salaflari asarlarida ham bir qator o‘xshash va o‘ziga xosliklarni ko‘ramiz.

Birinchidan, Nizomiy Ganjaviy va Muhammad Fuzuliy asarlarida Zayd alohida tasvirlanib, do‘st obrazidan tashqari alohida ishq dardiga muhtalo bo‘lgan oshiq sifatida tasvirlansa, Navoiy ijodida bunday tasvir usuli mavjud emas. Navoiy Majnun bilan Zaydni Navfal Layli qabilasiga qo‘shin tortgan paytdagi voqealar bilan birga tasvirlaydi. Ikkinchidan, bu ikkala shoirda tasvirlangan Zaydning ma‘shuqasi mavjud bo‘lsa (ikala ijodkorda ham uning nomi Zaynabdir), Navoiyning Zayd obrazida bu ishq mojarosi tasvirlanmaydi. Navoiy shu o‘rinda Majnun va Zayd dialogini keltirar ekan, unda majoziy tarzda ishq bayon etilganligiga guvoh bo‘lamiz:

Kim, yor qabilasin erishgil,
Qay soriki bordilar yetishgil.
Ham olma yuzungni ul makondin,
Boshingi; dag‘i ul ostondin...

Bu misralar bilan, shoir, majoziy tarzda Olloh yo‘lidagi qanchalik azob-zahmad undan kechishga, u bilan birga bo‘lmaslikka asos bo‘lmasligini isbot etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, SHarq adabiyotida “Layli va Majnun” dostonlarida keltirilgan do‘st obrazlari alohida ahamiyatga molik obrazlardan bo‘lib, Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Alisher Navoiy asarlarida haqiqiy do‘stlikning yaqqol namunasi sifatida tasvirlangandir.

Navoiy “Layli va Majnun” dostonida avom ishqini tarannum etuvchi obrazlarni ham yaratadi. Shunday obrazlardan biri Ibn Salom obrazidir.

Majnun kishanband qilib qo‘yilgandan so‘ng Layli qizlar bilan bog‘ga borib, parishon bo‘lib, (shoir o‘z asarida bu voqeani tasvirlar ekan, Laylini o‘z chehrasidan olamga gul ochib, yuzdagi ter bilan yerlarga gulob sohib, shu gul va gulobni namoyish etar, ishq o‘tida yuzlari juda boshqacha bo‘lib ketgan deya ta‘riflaydi) shom payti qaytayotganda, bir boy arab yigiti Laylini ko‘rib qoladi. Bu yigitni shoir zotida hech qanday nuqsoni yo‘q, sog‘lom kishi deb ta‘riflaydi:

Sahroni tutub tevasi yakband,
Haykal aro barcha ko‘x monand.
Chun molig‘a kimsa bilmayin son,
Har mushkil o‘lub qoshida oson.

Ibn Salom, har qanday yulduzni chaqa o‘rnida ko‘ruvchi va har bir ishning oqibati boylik bilan hal bo‘ladi deb o‘ylovchi insonlar toifasidan edi. Shu sababli Ibn Salom tezda o‘z qabilasiga borib sandiq-sandiq oltin-u dur yig‘ib, Laylining otasini oldiga sovchi yuboradi. Sovchilar borib otaga bu voqeadan xabardor qilganda, ota shunday deb javob beradi:

Somi’ chu qolib g‘arazni tahqiq
Dediki: «Xudoy bersa tavfiq,
Ul qilsa o‘g‘ullug‘um havosi,
Bo‘lg‘aymenu men dag‘i atosi.

Navoiy o'z asarida har bir Olloh yo'lida harakat qiladigan inson qiyinchilik va azoblarga duch kelishini ta'kidlar ekan, avvalo, o'z irodasiga sobit qolishini aytadi. Lekin xom sut emgan odam bolasi unga hamisha amal qila olmasligini Navoiy asarida ham aks etadi. Ishqi ko'proq hiyla va aldovdan iborat bo'lgan falak bir necha kun Majnun bilan hazillashib, yo'q, balki, bexayolik bilan uni uylanishga buyiradi:

Kim, ul necha kunki charxi purfan

Kim, ko'proq anga fireb erur fan.

Hazl etti ne hazl, behayolik,

Majnung'a buyurdi kadxudoliq

Shunda falak Majnuning Laylisiga ham vafo qilmaydi. Ibn Salom to'y taraddudiga tushib qoladi. Navoiy ana shu vaziyatda Ibn Salomni ajdarhoga o'xshatadi. Bunda o'z oltinini qanchalik egallashga intilsa ajdarho, Ibn Salom ham o'z oyiga erishish uchun jadallanadi:

Ham Ibni Salom ittifoqi,

Soz ayladi uylanur yaroqp.

Harnski kerak qilib murattab,

Layli xashamig'a surdi markab.

Chiqtilar alar dag'i topib kom,

Berdilar anga uy ichra orom...

Lekin Ibn Salomga ham teskari gardun vafo qilmagan edi. Chunki uning bir kasalligi bor ediki, u o'z oyiga etishishiga halaqit bergan edi. Bu kasallik nomi xafaqon edi (Bu kasallik inson qon bosimining oshishidir. Xafaqonlik nazorat qilinmasa va davolanmasa insul't, yurak xuruji, yurak yoki buyrak faoliyatining buzilishiga olib kelishi mumkin). Xafaqon kasalligi Ibn Salomga may ichgandan o'z asoratni ko'rsatar edi.

Xaylini dag'i tushurdilar bot,

Bazm ichra qadah keturdilar bot...

Aysh ayladilar necha tunu kun

Kim, ne kunya maysiz erdi, ne tun.

Chup bo'ldi mahalki aqdi tazvij.

Bergay bu nishot ishiga tarvij...

Navoiy o'z asarida bu holni tasvirlar ekan, insonlar o'zlarida bor qusurni engal olishmasa, yoinki, o'z nafsini jilovlay olishmasa, go'yoki Ibn Salom holiga tushishiga ishora qiladi. Shu holatda Navoiy yana bir haqiqatni kitobxonga eslatib o'tmoqchi bo'ladi: Inson Ollohga mehr qo'yar ekan hech qachon undan yuz o'girmaydi:

O'z qatlini aylamish edi big',

Pinhon qilib erdi zahrlik tig'

Kim, xasm topar nafas anga kom,

O'lturgay o'zini kom-nokom.

Ag'yordin o'zni ori etgay,

O'z yori vafosi birla ketgay:

Tig' o'ziga ixtiyor qildi,

Xasmi badanig'a kor qildi

Avom ishqiqi sohibi bo'lgan Ibn Salom o'zini tarbiyalay olmagan uchun ko'p ichib qo'yadi natijada to'y kuni kasali xuruj qiladi va u maqsadiga erishmaydi: Layliga yetisha olmaydi. Bu bilan Navoiy avom ishqini inkor qilmaydi, balki uning xoslar ishqiqi oldidagi ojizligini ko'rsatadi. U Layli va Majnunning bir-biriga bo'lgan muhabbatini esa xoslar ishqiqi sifatida qarab, pok ishqning misoli sifatida avom ishqidan ustunligini namoyon qiladi.

Adabiyorlar ro'yhati:

1. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Танланган асарлар. XI том. – Т.: Фан, 1992. 255-бет.
2. Bakhtiyorovna S. S. In the Uzbek Language, the Category of Respect as a Social and Human Event. – 2020.
3. Sadikova, S. B. (2023). The Role of Philosophical and National Framework in Artistic Analysis. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 40-43.
4. Baxtiyarovna, S. S. (2021). Alisher Navoiy ijodida ta'lim-tarbiya va do'stlik masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 94-97.
5. Bakhtiyorovna, S. S. Art of the chapter dedicated to the heritage of Alisher Navoi in the epic "Khamisa. *Журнал Хозарм маъмун академияси ахборотномаси. Хива*, 5, 86-88.
6. Abduganiyevna, A. D. (2024). Research of Phraseological Units Related to Profession in Translations. *Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(2), 132-136.
7. Bekmuratova, S. M. Q. (2023). CULTURAL FEATURES OF PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK ON THE TOPIC OF HOMELAND. *Scientific progress*, 4(5), 153-157.
8. Lafasov, U. P. (2022). BASICS OF LANGUAGE SCIENCE AMONG UZBEKS. *Oriental Journal of Education*, 9-12.
9. Bakhadirova, D. (2024, December). PROBLEMS IN TRANSLATION OF ARTISTIC WORKS (BASED ON THE WORKS OF A. NAVOI). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 12, pp. 273-277).
10. Bakhadirova, D. A. (2024). Issues of Speech Culture in Navoi's Work. *Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(2), 225-227.